



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2025-yil 26-mart

148-6-81-Q/25

Mingbuloq tumani hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Imom Moturidiy tavalludining 1155-yilligini keng nishonlash to‘g‘risida” 2025-yil 17-martdagi PQ-102-son qarori ijrosi Namangan viloyati hokimining 2025-yil 20-martdagi 144-6-0-Q/25 -sonli qarori to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Imom Moturidiy tavalludining 1155-yilligini keng nishonlash to‘g‘risida” 2025-yil 17-martdagi PQ-102-son qarori, Namangan viloyati hokimining 2025-yil 20-martdagi 144-6-0-Q/25 -sonli qarorida belgilangan vazifalarni ijrosini ta‘minlash maqsadida, “Mahalliydavlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6- va 21¹-moddalariga muvofiq,

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentning “Imom Moturidiy tavalludining 1155-yilligini keng nishonlash to‘g‘risida” 2025-yil 17-martdagi PQ-102-son qarori hamda Namangan viloyati hokimining 2025-yil 20-martdagi 144-6-0-Q/25 -sonli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur qarori bilan:

Din ishlari bo‘yicha qo‘mita, O‘zbekiston musulmonlari idorasi, Samarqand viloyati hokimligi, O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi, Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazining 2025-yilda Imom Moturidiy tavalludining 1155-yilligini keng nishonlash to‘g‘risidagi taklifi ma‘qullanganligi;

Imom Moturidiy tavalludining 1155-yilligiga bag‘ishlangan tadbirlarga tayyorgarlik ko‘rish va ularni o‘tkazish bo‘yicha tashkiliy qo‘mita (keyingi o‘rinlarda — Tashkiliy qo‘mita) tarkibi ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

2025-yil aprel oyida Samarqand shahrida “Moturidiylik — bag‘rikenglik, mo‘tadillik va ma‘rifat ta‘limoti” mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy anjuman o‘tkazilishi;

Imom Moturidiyning serqirra hayot yo‘li va ilmiy merosining bugungi kundagi ahamiyatini ochib beradigan badiiy-publisistik film yaratilishi;

2025-yilning may va oktyabr oylarida Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida Oliy ta'lim muassasalarini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan "Moturidiylik ta'limoti va hozirgi zamon" mavzusida Ryespublika ilmiy amaliy konferensiyasini hamda ilmiy maqolalar tanlovini o'tkazilishi belgilanganligi;

O'zbekiston musulmonlari idorasiga imom-xatiblar hamda diniy ta'lim muassasalari talabalari o'rtasida "Moturidiylik ta'limoti bilimdoni" tanlovini o'tkazish va g'oliblarni munosib taqdirlash tavsiya etilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. O'zbekiston Respublikasi Din ishlari bo'yicha qo'mitasi Mingbuloq tuman bo'limi (I.Nishonov), tuman Ma'naviyat va ma'rifat markazi (D.Jo'raboyeva), Yoshlar ishlari agentligi (M.Mamasobirov) 2025-yil davomida joylarda Imom Moturidiyning ilmiy merosiga bag'ishlangan davra suhbatlarini tashkil etsin.

4. Tuman hokimligi Axborot xizmati (Sh.Kenjayeov), "Mingbuloq" gazeta tahririyati (Q.Akbarov)ga Imom Moturidiy tavalludining 1155-yilligini nishonlash bilan bog'liq tadbirlarni keng yoritib borish tavsiya etilsin.

5. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o'rinbosari J.Raximov zimamasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi



A.Mansurov